

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.148.368.942

ISHMANOVA DIANA NURMAMADOVNA

**MAVZU : NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHDA
TIBBIY SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
08.00.07- "MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT"**

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar: N.X. Jumaev i.f.d.,prof

Toshkent-2024

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASH-TIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1-§.	Davlat xarajatlarini boshqarish usuli sifatida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning iqtisodiy mohiyati.....	12
1.2-§.	Davlat xarajatlarini boshqarish strategiyasini amalga oshirishda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning roli.....	23
1.3-§.	O'zbekiston Respublikasida NYBni qo'llash usullari va xalqaro tajriba.....	34
	I bob bo'yicha xulosa.....	57
II BOB.	SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI.....	59
2.1-§.	Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishda davlat tibbiy sug'urtasining ahamiyati.....	59
2.2-§.	Pandemiya sharoitida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta'minlash tahlili.....	70
2.3-§.	Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta'minlashni natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish istiqbollari.....	79
	II bob bo'yicha xulosa.....	90
III BOB	NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHDA TIBBIY SUG'URTANING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	92
3.1-§.	Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish chora-tadbirlari.....	92
3.2-§.	Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasini takomillashtirish.....	102
3.3-§.	Davlat tibbiy sug'urtasining mustaqilligini ta'minlash.....	113
	III bob bo'yicha xulosalar.....	125
	XULOSA VA TAVSIYALAR.....	128
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	130

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasiga ko'ra, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish metodidan foydalanishda, byudjet mablag'larini olishni natija mezonlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish muammolari doimo byudjet siyosatining markazida turadi. Globalizatsiya sharoitda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini takomillashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, nafaqat byudjet jarayonining barcha bosqichlari mazmuni, balki davlat xarajatlarini boshqarish konsepsiyasining o'zini ham tubdan o'zgartirmoqda. "Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga asoslangan davlat xarajatlarini boshqarish tizimi 1962-yilda AQShda yuzaga kelgan. U Planning-Programming-Budgeting System (PPBS) deb nomlandi va berilgan byudjet cheklovlari doirasida resurslarni optimal taqsimlashni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan"¹. Tizim doimiy takomillashtirildi va hozirgi kunda ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tomonidan turli xil modifikatsiyalarda qo'llaniladi. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etishda Yangi Zelandiya, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, shuningdek, Fransiya va Germaniyada muhim muvaffaqiyatlarga erishilgan hamda byudjetdan mablag' oluvchilar kesimida byudjetni taqsimlash va ularning byudjet vakolatlarini kengaytirish mexanizmining joriy etilishi bilan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning o'z maqsadlarini belgilash va muvofiq ravishda aniq tadbirlarini rejalashtirish imkoniyatlari ham kengayib boradi.

Bugungi kunda jahonda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishda tibbiy sug'urta mexanizmlarini tadqiq qilinish borasida keng doiradagi izlanishlar olib borilmoqda. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishda asosiy maqsad o'rta muddatli kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va byudjet siyosatini muvofiqlashtirish, fiskal intizomning ta'sirchanligini oshirish, strategik qarorlarning asoslilikini ta'minlash, byudjetlarning joriy va kapital xarajatlarining samaradorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatga erishish, tarmoqlar doirasida

¹ <https://www.decisionlens.com/blog/everything-you-need-to-know-about-ppbs>

va ulardan tashqarida resurslarni taqsimlashni yaxshilash, tarmoq idoralari va vazirliklar uchun byudjetning aniqligini ta'minlash hamda davlat mablag'laridan yanada samarali foydalanish va bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini baholash ko'rsatkichlarini kengaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarur. Ayni paytda "Dasturiy byudjetlashtirish"ni joriy etish uchun zarur mexanizmlar aniqlashtiriladi, mazkur tizimning afzallik va kamchiliklari o'rganilib, joriy va yangi tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlarini aniqlash uslublari ishlab chiqiladi. Jumladan, amaldagi byudjet tasnifiga o'zgartirish kiritilib, davlat xarajatlarini dasturlar bo'yicha tasniflash joriy etish ko'zda tutilmoqda. "Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini shu yil 1-oktabrdan boshlab Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2025-yil 1-yanvardan Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy etish taklif etilmoqda"². Bu esa natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishda tibbiy sug'urta mexanizmlarini tadqiq qilish masalalariga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida", 2020-yil 12-noyabrda PQ-4890-son "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustda 506-son "2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² <https://president.uz/uz/lists/view/7525> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5-sentyabrda PQ-311-sonli "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori